



“TASDIQLAYMAN”
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti rektori
F.Madraximova
2026-yil

SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO‘PLAMI
60730100-“Arxitektura” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha

1.Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevral PQ-49 sonli qarori asosiy maqsad vazifalarining z) bandida 37 ta og‘r toifadagi tumanlarda kambag‘allik darajasini kamida 2 baravarga qisqartirish va Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi 33 tuman va shaharni kambag‘allikdan xoli hududga aylantirish belgilangan. Shu tashabbus ijrosiga sizning fikringiz va taklif g‘oyalaringiz haqida fikringizni bayon qiling?
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevral PQ-49 sonli qarori 4 bandida Respublikada 37 ta og‘ir toifadagi tuman va kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan 903 ta og‘ir toifadagi (keyingi o‘rinlarda og‘ir mahallalar) tanlangan va ularga istiqbolli master rejalar ishlash topshirilgan. Shu tashabbus ijrosiga sizning fikringiz va taklif g‘oyalaringiz haqida fikringizni bayon qiling?
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevral PQ-49 sonli qarori 14 son a) bandida Aholi daromadini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha eng yaxshi natija ko‘rsatgan 100 ta og‘ir mahallaga 1 mlrd so‘mdan ajratish ko‘rsatilgan. Shu tashabbus ijrosiga sizning fikringiz va taklif g‘oyalaringiz haqida fikringizni bayon qiling?
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevral PQ-49 sonli qarori 14 son a) bandida 200 ta gavgum ko‘chalar, 206 ta sohilbo‘yi va 500 ta yo‘l bo‘yi infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun 1,2 trln so‘m ajratish ko‘rsatilgan. Shu tashabbus ijrosiga sizning fikringiz va taklif g‘oyalaringiz haqida fikringizni bayon qiling?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevral PQ-49 sonli qarori 14 son b) bandida Turizm salohiyati yuqori bo‘lgan 150 ta mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun 450 mlrd so‘m ajratish ko‘rsatilgan. Shu tashabbus ijrosiga sizning fikringiz va taklif g‘oyalaringiz haqida fikringizni bayon qiling?
6. O‘zbekistonda arxitektura sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
7. Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi islohotlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Zamonaviy shaharsozlik siyosatini shakllantirishda davlat dasturlarining ahamiyati nimada?
9. O‘zbekistonda shaharlar bosh rejalarini ishlab chiqish va yangilash zarurati nimada?
10. Arxitektura va shaharsozlik sohasini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?
11. Shaharsozlik faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati nimada?
12. BIM (Building Information Modeling) texnologiyasidan arxitektura va qurilish sohasida foydalanish qanday afzalliklarni beradi?
13. GIS texnologiyalarining hududlarni rejalashtirish va shaharsozlikdagi o‘rni qanday?
14. Arxitektura loyihalarini ekspertizadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish qanday natijalarga olib keladi?
15. Qurilish va arxitektura sohasida shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati nimada?

16. Shaharlarning ekologik barqarorligini ta'minlashda "yashil arxitektura" tamoyillarining o'rni qanday?
17. Energiya samarador binolarni loyihalash va qurish bo'yicha islohotlar nima uchun muhim?
18. Zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishda arxitektura sohasidagi islohotlarning o'rni qanday?
19. Tarixiy va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish hamda restavratsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ahamiyati nimada?
20. Tarixiy shaharlar, xususan, Xiva, Buxoro va Samarqand shaharlarida zamonaviy qurilish bilan tarixiy muhitni uyg'unlashtirish qanday amalga oshirilishi kerak?
21. Aholi uchun qulay va xavfsiz shahar muhitini yaratishda zamonaviy arxitektura yechimlarining o'rni qanday?
22. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv va qulay arxitektura muhitini yaratish bo'yicha islohotlar nima uchun zarur?
23. Arxitektura sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati nimada?
24. Xalqaro tajribani o'rganish va xorijiy hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston arxitektura sohasiga qanday imkoniyatlar yaratadi?
25. Mamlakatda amalga oshirilayotgan arxitektura va shaharsozlik sohasidagi islohotlarning uzoq muddatli istiqboldagi ahamiyati nimadan iborat?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. Arxitektura yo'nalishini tanlashdan maqsadingiz nima?
2. Arxitektor faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus talablar deganda nimani tushunasiz?
3. Siz tanlagan Arxitektura ta'lim yo'nalishidagi imkoniyatlar haqida ma'lumot bering?
4. Arxitektor mutaxassisi faoliyatining asosiy maqsadi qaysi fazilatlarida ifodalanadi?
5. Arxitektorning amaliy ish tajribasiga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot bering?
6. Bino va inshootlarni hududiy tasniflash, joylashtirish va bosh tarxlarini rejalashtirishda texnik arxitektor qanday mehnat harakatlarini bajaradi?
7. Binolarni loyihalash tartibiga qarab barcha turdagi binolarning ustuvorligi va ishlatilish mo'ljaliga qarab nechta toifalarga ajratiladi?
8. Turarjoy binolari qanday turlarga bo'linadi?
9. Jamoat binolariga qanday binolar kiradi?
10. Sanoat binolari turlari haqida ma'lumot bering?
11. Inshootlar qurilishi haqida ma'lumot bering?
12. Kam qavatli turar uy-joylarga nechta qavatdan iborat bo'lgan uylar kiradi?
13. O'rta qavatli turar uy-joylarga nechta qavatdan iborat bo'lgan uylar kiradi va ular tarxiiy tuzilmasiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
14. Ko'p qavatli turar uy-joylarga nechta qavatdan iborat bo'lgan uylar kiradi va ular tarxiiy tuzilmasiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
15. Baland qavatli turar uy-joylarga nechta qavatdan iborat bo'lgan uylar kiradi va ular tarxiiy tuzilmasiga qarab qanday turlarga bo'linadi?
16. Binoni ufq yo'nalishi bo'yicha bosh rejada joylashtirishda honalar joylashuviga bo'lgan talablar haqida ma'lumot bering?
17. Tarxiiy tuzilma bo'yicha zinapoyalar nechta marshli bo'ladi?
18. Binoda quyoshdan himoyalovchi vositalar turlari haqida ma'lumot bering?
19. Binoda liftlarning o'rnatilishiga bo'lgan talab va ularning turlari haqida ma'lumot bering?
20. Siz tanlagan Arxitektura ta'lim yo'nalishining kelajagi haqida fikrlaringiz.
21. Sizni arxitektura ta'lim yo'nalishini tanlashga nima undadi?
22. Arxitektura kasbiga bo'lgan qiziqishingiz qachondan boshlangan?
23. Arxitektura ta'lim yo'nalishini tanlashda ijodkorlik va dizaynga bo'lgan qiziqishingiz qanday rol o'ynadi?

24. Kelajakda arxitektura sohasida qanday kasbiy maqsadlarga erishishni xohlaysiz?
25. Arxitektura ta'limini egallash orqali jamiyat va mamlakat rivojiga qanday hissa qo'shishni rejalashtiryapsiz?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Arxitektura kasbi insonga qanday mas'uliyat yuklaydi?
2. Arxitektor qanday asosiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Arxitektor bo'lish uchun qaysi fundamental fanlardan bilimlarga ega bo'lish zarur? Izoh bering.
4. Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim?
5. Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Izoh bering.
6. Sizning hayotingizda Kompyuterda loyihalash (AutoCAD, 3ds Max, Revit) dasturlarini mukammal bilish muhim o'rin tutadimi? Izoh bering.
7. Sizningcha Kompyuterda loyihalash (AutoCAD, 3ds Max, Revit) dasturlarini mukammal bilish turli xil moliyaviy muammolarni tug'diradimi?
8. Shu kungacha Arxitektura sohasi bo'yicha tanlovlarda ishtirok etib qanday yutuqlarga erishgansiz? Nimaga qiziqishingiz haqida izoh bering.
9. Sizga biror topshiriq berilsa boshqalar bilan maslahatlashasizmi, nima uchun?
10. Sizningcha inson nega muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. 5 yildan keyin o'zingizni qanday qiyofada aks ettirasiz?
12. Birinchi moliyaviy daromadingiz? Oxirgisichi?
13. Inson nimani to'g'ri tanlashi kerak deb o'ylaysiz?
14. Nima uchun bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan talab yuqori deb o'ylaysiz? Siz qaysi tilni o'rganyapsiz?
15. Sizningcha kelajakda o'z sohangiz bo'yicha yoki biror nimani o'zgartira olaman deb o'ylaysizmi? Aynan nimani?
16. Kasb tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
17. Sizning hayotingizda internet muxim o'rin tutadimi? Izoh bering.
18. Axborot hurujlari haqida qanday fikr bildirasiz?
19. Kasb tanlashda oila muhitining o'rni sizga qanday ta'sir qilgan? Izoh bering.
20. Ilhom olish uchun qaysi mashhur binolar yoki me'morlarni bilasiz?
21. Arxitektor uchun qanday shaxsiy fazilatlar eng muhim hisoblanadi?
22. Arxitektura sohasida ijodkorlik va kreativ fikrlashning ahamiyati nimada?
23. Arxitektor faoliyatida mas'uliyat, aniqlik va intizom qanday rol o'ynaydi?
24. Arxitektura kasbida jamoada ishlash va muloqot qobiliyati nima uchun muhim?
25. Zamonaviy arxitektor qanday kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi: Proyeksiyalash usullari, kesimlar va yoyilmalar hosil qilish qoidalari haqida ma'lumot bering?

Binolar turlari, ularning konstruktiv qismlari (poydevor, devor, tom) va asosiy loyihalash bosqichlari haqida ma'lumot bering?

1. Binokorlikda ishlatiladigan asosiy materiallar (beton, g'isht, metall) va ularning xossalari haqida ma'lumot bering?
2. AutoCAD, Revit, ArchiCAD yoki 3ds Max dasturlarining loyihalash jarayonidagi o'rni va ularning o'zaro farqi nima?
3. Arxitektura va bosh reja (genplan) chizmalarida odatda qaysi masshtablardan foydalaniladi?
4. Me'moriy chizmalardagi "Plan" (reja), "Fasad" (ko'rinish) va "Qirqim" (kesim) bir-biridan qanday ma'lumotlari bilan farq qiladi?

5. Turar joy binosini loyihalashda shovqinli (mehmonxona, oshxona) va tinch (yotoqxona, ish xonasi) hududlarni qanday to'g'ri taqsimlaysiz?
6. Bino turlariga qarab konstruksiya tanlash haqida ma'lumot bering?
7. Arxitektura yo'nalishidagi islohotlar, tarixiy obidalar va zamonaviy tendensiyalardan xabardorlik haqida ma'lumot bering?
8. Shaharsozlik va qurilishga oid davlat qoidolari hamda me'yorlarini bilish haqida ma'lumot bering?
9. Turar joy binolarini qurish va ulardan foydalanish jarayonlarini tasavvur qilish haqida ma'lumot bering?
10. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi va ShNQ (Qurilish me'yorlari va qoidolari)ning asosiy vazifasi haqida ma'lumot bering?
11. Loyiha chizishda hududning iqlim sharoiti, shamol yo'nalishi (shamol guli) va quyosh nurining tushishi (insolyatsiya) qanday hisobga olinadi?
12. Tarixiy binolarni qayta tiklash (restavratsiya) va ularni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish (rekonstruksiya) o'rtasidagi farq nima?
13. Binolardagi karkasli va karkassiz (g'ishtli) konstruktiv tizimlarning farqi va afzalliklari haqida ma'lumot bering?
14. Binoning asosi hisoblangan poydevor turlari (tasmali, ustunli, plitali, qoziqli) qaysi holatlarda tanlanadi?
15. Energiya tejankor va ekologik toza (yashil) qurilish materiallariga qanday misollar keltira olasiz?
16. Binolarni loyihalashda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qanday elementlar (panduslar, maxsus liftlar, o'tish joylari) hisobga olinishi shart?
17. Buyurtmachi siz chizgan loyiha xavfsizlik qoidalariga zid bo'lgan qismini o'zgartirishni xohlamasa, arxitektor sifatida qanday yo'l tutasiz?
18. Sanoat binosining turiga qarab shaharsozlikda joylashtirish haqida ma'lumot bering?
19. Arxitektura sohasiga oid qanday boshlang'ich bilimlarga egasiz?
20. Chizma geometriyasi, muhandislik grafikasi va kompozitsiya bo'yicha bilimlaringizni qanday baholaysiz?
21. Arxitektura loyihalarini ishlab chiqishda qanday amaliy ko'nikmalarga egasiz?
22. AutoCAD, SketchUp, Revit yoki boshqa zamonaviy arxitektura dasturlaridan foydalanish bo'yicha tajribangiz bormi?
23. Tanlagan arxitektura bakalavriat ta'lim yo'nalishida muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun qanday bilim va kasbiy ko'nikmalaringiz mavjud?
24. Arxitektura sohasida ijodiy fikrlash va mustaqil loyiha ishlab chiqish ko'nikmalaringizni qanday baholaysiz?
25. Arxitektura va qurilish materiallari, konstruksiyalar hamda zamonaviy loyihalash texnologiyalari bo'yicha qanday bilimlarga egasiz?

Texnika fakulteti dekani



S. Madaminov